O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DM

100011, Toshkent shahri, Abay ko‘chasi, 6-uy, Tel/Faks: 71-203-11-01, E-mail: davexpertiza@exat.uz, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy
Direktor: Inoyatov Mirabbos Mirkomilovich
Sana: 25-07-2025 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

252738 - SONLI

Obyekt nomi: “Toshkent shahar Yakkasaroy tumani, Bobur ko‘chasi 24-uyda joylashgan “Ma’muriy hudud, Omborxona va mehmonxona” binosini “Yerto‘la qismida avtoturargoh, pastki qavati savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish majmuasi bo‘lgan ofis va mehmonxona” binosiga ixtisoslashtirib, rekonstruksiya qilish” (2-bosqich) ishchi loyihasi	
Buyurtmachi:	BEST TOWER PALACE MCHJ
Bosh loyihachi:	"AZIYA INDUSTRY INVEST" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	“BEST TOWER PALACE” MCHJ
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	076143

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Toshkent shahar Qurilish Bosh boshqarmasi tomonidan 2025-yil 15-fevralda berilgan 175050417-sonli ob’ektni ixtisosini o‘zgartirish va rekonstruksiya qilishga ruxsatnoma.

1.2. Belgilangan tartibda kelishilgan va 2025-yil buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirig‘i.

1.3. Toshkent shahar qurilish bosh boshqarmasi tomonidan 2022-yil 12-oktyabrda ishchi loyiha uchun taqdim etilgan 56560-sonli xulosa.

1.4. Toshkent shahar Qurilish Bosh boshqarmasi tomonidan 2025-yil 11-martda berilgan 1726-1726287-62090-sonli Arxitektura rejalashtirish topshirig‘i.

1.5. 2024-yilda “GEOSFERA-DEVELOPING GROUP” MChJ tomonidan bajarilgan qurilish maydonchasining muhandislik-geologik sharoitlari to‘g‘risidagi texnik xulosa.

1.6. 2025-yil “DIN ENGINEERING PRO” MCHJ tomonidan o‘tkazilgan mavjud bino va inshootlarni texnik ko‘rikdan o‘tkazish va instrumental o‘rganish bo‘yicha xulosasi

1.7. “Hududiy Elektr Tarmoqlari” MChJ elektr tarmoqlariga ulanish uchun 2025-yil 20-maydagi 2628745134-raqamli texnik shartlar.

1.8. “Toshkent shahar suv ta’minoti” AJning 2024-yil 17-dekabrdagi 270/4-5763-sonli texnik shartlar.

1.9. Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun 2024-yil 18-noyabrda buyurtmachi bilan tuzilgan 25P/11-sonli shartnoma.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyiha tarkibiy bayoniga ko‘ra “ishchi loyiha” ning elektron yo‘nalishda taqdim qilingan loyiha-smeta hujjatlari.

2.2. “Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi” DUK tomonidan 2022-yil 30-dekabrda berilgan 85622-sonli yig‘ma ekspert xulosasi (1-bosqich. Arxitektura va konstruktiv yechimlar).

2.3. Energetika vazirligining 2025-yil 15-maydagi 01-28-833-sonli xati.

2.4. “AZIYA INDUSTRY INVEST” MCHJ tomonidan 2025-yilda bajarilgan issiqlik muhandislik hisobi.

2.5. “AZIYA INDUSTRY INVEST” MCHJ tomonidan 2025-yilda bajarilgan energiya pasporti.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Qurilish maydonchasining ma’lumotlari.

Tashqi havo harorati – minus 14oS.

Normativ shamol bosimi – 0,38 kPa.

Normativ qor qatlami og‘irligi – 0,50 kPa.

Tuproqning muzlash chuqurligi – 0,7 m.

Toshkent shahrining seysmik mikrorayonlashtirish xaritasi bo‘yicha yer maydonining seysmikligi 8 ballga baholangan.

Binoning poydevori bo‘lib jigarrang, yuqori g‘ovakli, kam nam va nam, cho‘kuvchan lessimon loy tuproqlar xizmat qiladi. Element quvvati 11,9 – 13,2 m.

Tuproqning cho‘kuvchanligi – 2 (ikkinchi).

Yer osti suvlari yer yuzasidan 13,8-14,0 m chuqurlikda joylashgan.

Tuproq-gruntlarning muzlash chuqurligi – 0,48 m 10-yilda 1 marta; 0,70 m 50-yilda 1 marta.

3.2. Arxitektura – rejalashtirish yechimlari.

Ma’muriy bino 15 qavatli yerto‘lali bo‘lib, rejadagi tarx o‘lchamlari 1-7 va A-K o‘qlari 26,80x37,45 m ni tashkil etadi. Yerto‘lada avtoturargoh joylashgan bo‘lib, balandligi h=4,6 m (poldan polgacha). 1-qavatning balandligi h=4,2 m (poldan polgacha). 2-14 qavatlarning balandligi h=3,8 m (poldan polgacha). 15-qavat balandligi h=4,2 m (poldan shiftgacha), 16-qavat texnik qavat bo’lib, balandligi h=2,53 m (poldan shiftgacha) .

Binoning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari.

Binoning umumiy maydoni – 1331,96 m^2.

Qurilish maydoni – 1777,0 m^2.

Yerto‘laning umumiy maydoni – 1112,14 m^2.

Qurilish hajmi, 0.000 dan yuqori – 4893,42 m^3.

0.000 dan past – 63167,258 m^3.

Ichki pardozlash:

Xonalarni pardozlashda zamonaviy materiallardan foydalanilgan.

Devorlar – akril bo‘yog‘i bilan bo‘yalgan, keramik plita bilan qoplangan va boshqalar.

Shift – plastik, suvoq va suv emulsiyasi bilan bo‘yalgan va boshqalar.

Pollar – keramik plita va boshqalar.

Derazalar – alyuminiy.

Eshik – MDF, metall, plastik va boshqalar.

Tashqi pardozlash:

Devorlar – to‘liq oynali.

Poypesh – muzlashga chidamli plitkalar bilan qoplangan.

Tom qoplama- ko‘p qatlamli tekis tom.

3.3. Bino 2 qavatli yerto‘lali bo‘lib, rejadagi tarx o‘lchamlari 1/1-1/2 va J-L o‘qlari 7,35x30,90 m ni tashkil etadi. Yerto‘lada avtoturargoh joylashgan bo‘lib, balandligi h=4,6 m (poldan polgacha). 1-qavatning balandligi h=4,2 m (poldan polgacha). 2 qavatning balandligi h=3,8 m (poldan polgacha).

3.4. Texnik qavat.

3.5. Konstruktiv yechimlari.

Konstruktiv tuzilmasi – rama-bog‘lamali.

Poydevori – qalinligi 1600 mm bo‘lgan monolitli temirbeton plita, beton sinfi V30.

Yerto‘la devori – 400 mm qalinlikdagi monolitli temirbeton, beton sinfi V30.

Pardevorlar - gipsokarton va gazoblok.

Ora yopma va tom yopma – 200mm va 170 mm qalinlikdagi beton, beton sinfi V30.

Tom qoplama – metal konstruksiyali, profnastil.

Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 26.03.20225-yildagi 180302857-sonli xulosasiga asosan “DIN ENGINEERING PRO” MChJ loyiha tashkiloti tomonidan qurilish tamomlanmagan 15 qavatli “Biznes sentr” binosining texnik o‘lchov va instrumental tekshiruv hisoboti o‘tkazilgan.

Hisobotga asosan qo‘shimcha 16-texnik qavat, qurish mumkinligini fazoviy hisoblash orqali (prostranstvennaya raschetnaya model na osnove LIRA-SAPR-2017) aniqlangan.

Hozirgi kunda qurilish-montaj ishlari 15 qavatgacha qurilib qo‘yilgan.

16-chi texnik qavat balandligi 2.53 m bo‘lib metal konstruksiyalardan ShNK 2.03.05-13 talablari asosida ishlangan.

3.6. Yong‘in xavfsizligi.

Yong‘inga qarshiligi – II toifa.

Binoning funktsional yong‘in xavfi bo‘yicha tasnifi – F1.2, F3.2, F4.3.

Konstruktiv yong‘in xavf turi – SO.

Loyihada qo‘riqlash va yong‘in xavfida xabar berish tizimi ko‘zda tutilgan. Yong‘inni o‘chirish yong‘in gidrantlaridan amalga oshiriladi. Bino atrofida o‘t o‘chirish mashinalari uchun yo‘laklar mavjud.

3.7. Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun qulaylik yaratish.

Ishchi loyihada ShNQ 2.07.02-24 “Qurilish ob’ektlarini nogironligi bo‘lgan va hayot faoliyati cheklangan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish” shaharsozlik normalari va qoidalariga asosan shart-sharoitlar ko‘zda tutilgan.

3.8. Qurilish qiymatini hisoblash.

Qurilish-montaj ishlarining qiymatini hisoblash shartnomaviy joriy narxlarda ShNQ 4.01.16-09 “Qurilish qiymatini shartnomaviy joriy narxlarda aniqlash bo‘yicha qoidalar”ga muvofiq tuzilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Elektr ta’minoti bo‘yicha qisqacha ma’lumot:

Loyihaning umumiy ko‘rsatmalar qismida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra loyihalanayotgan obyekt elektr ta’minotining ishonchliligi darajasiga ko‘ra – II toifaga kiritilgan. Kirish taqsimlovchi qurilmalar (ВРУ) lar orqali, Elektr taqsimot va yoritish panellari plastik shitlar orqali ta’minlanadi, O‘rnatish balandligi: devorga, h = 1,5 m Elektr energiyasi iste’molchilari: ishchi va favqulodda yoritish tizimi, rozetkalar, elektr uskunalar, maishiy konditsionerlar va ventilyatsiya tizimlari. Kabel tarmoqlari Kuchlanish kabeli,vvgнг-LS 0.66, Yotqizish usuli, yashirin holda, pol ostidan PVX quvurlar orqali va kabel galeriyalarida. Yoritish tarmoqlari vvgнг-LS 0.66 mm² mis kabellardan, PVX gofrotruba Ø20 mm ichida devorlar va shift ostida yashirin yotqiziladi. Devorga va shipka klipslar bilan mahkamlanadi. Yoritish moslamalari (chiroqlar), Loyiha chizmalarida ko‘rsatilgan, binodagi xona vazifasi va atrof-muhit sharoitiga muvofiq tanlangan. Elektr yoritish turlari, Faqat ishchi yoritish tizimi (~220V kuchlanishda), barcha xonalarda o‘rnatiladi. Yoritish tizimi qo‘lda yoqiladigan kalitlar orqali boshqariladi. Zaminlash va xavfsizlik, Barcha tok o‘tkazmaydigan metall qismlar zaminlanadi va tizimga ulanadi.

4.2. "Yong‘in" signali bo‘yicha qisqacha ma’lumot:

"Yong‘in" signali quyidagi qurilmalar ishga tushganda, optiko-elektronik manzilli-analogli tutun aniqlagichlar "IP 212-64-R3", "VA" mantiqiy sxema bo‘yicha ulanadi, qo‘l bilan ishga

tushiriladigan yong‘in aniqlagichlar "IPR 513-11 IKZ-A-R3" orqali aniqlanadi. Yoritgichli ogohlantirgichlar "OPOP 1-8" manzilli reley modulining "RM-4K-R3" chiqishiga ulangan. Liniyaning uzilishi yoki qisqa tutashuvini nazorat qilish uchun, "RM-4K-R3" modulining bitta chiqishiga ko‘pi bilan 8 ta "OPOP 1-8" ogohlantirgich ulanadi. PPKOPU tomonidan boshqaruv signali kelganda, manzilli reley moduli chiqish holatini "Yopiq"dan "Meandr" holatiga o‘zgartiradi (chastotasi 0,5 Gts). Og‘zaki ogohlantirish tizimi manzilli yong‘in ogohlantirish boshqaruv qurilmasi PPU Sonar SPM-V10025-AW orqali tashkil etilgan. Akustik tizim sifatida devorga o‘rnatiladigan "SWS-103W" karnaylar ishlatiladi. Qo‘l bilan ishga tushiriladigan yong‘in aniqlagichlar pol sathidan 1,5 m, eshik romidan 0,1 m balandlikda o‘rnatiladi.

4.3. Issiqlik va sovitish ta'minoti bo‘yicha qisqacha ma’lumot:

Issiqlik ta'minoti manbai – Q=350 kVt bo‘lgan 7 dona polga o‘rnatiladigan gazli qozon hisoblanadi. Issiqlik tashuvchining harorat parametrlari: ta'minlovchi quvurni tark etishda Tp=80°C, qaytuvchi quvurda Tob=60°C. Loyihalash va qurilishning ikkinchi bosqichida qozonxonani bino tashqi yuzasidan tashqariga chiqarish yechimi ko‘rib chiqilgan. Sovitish ta'minoti manbai sifatida VRF tizimi xizmat qiladi.

4.4. Isitish va konditsiyalash bo‘yicha qisqacha ma’lumot:

Bino ichida ikki quvurlik havo tizimli isitish tizimi loyihalashtirilgan. Issiqlik tashuvchisi — issiq suv bo‘lib, uning parametralari: tp = +80°C, to = +60°C. Isitish tizimidan havoni chiqarish tizimning yuqori nuqtalarida o‘rnatilgan havoto‘plagichlar yordamida amalga oshiriladi. Alohida tarmoqlarni o‘chirish va ulardan suvni tushirish uchun yopuvchi armaturalar ko‘zda tutilgan. Isitish moslamalari sifatida balandligi H-500 mm bo‘lgan bimetall radiatorlar, quvurlar esa polipropilendan foydalaniladi.

4.5. Tutunsizlantirish ventilyatsiyasi bo‘yicha qisqacha ma’lumot:

Loyihalashtirilayotgan binoda (yong‘in yuzaga kelganda) har bir qavatdagi kirish yo‘laklaridan odamlarni xavfsiz evakuatsiya qilish maqsadida tutunsizlantirish ventilyatsiyasi ko‘zda tutilgan. Tutunni chiqarish bo‘yicha barcha hisob-kitoblar maksimal yuklamalar asosida, moddalarning yonish tezligi va yonish issiqligiga muvofiq amalga oshirilgan. Tortuvchi tutunsizlantirish ventilyatsiya tizimlari uchun harorat 400°C dan kam bo‘lmagan hisobiy gaz haroratida ishlay oladigan, 2,0 soatdan kam bo‘lmagan yong‘inga chidamlilik darajasiga ega ventilyatorlar nazarda tutilgan. Ular xizmat ko‘rsatiladigan xonalar toifasiga muvofiq bajarilgan bo‘lishi kerak. Tutun chiqarish shaxtalari EI 45 dan kam bo‘lmagan yong‘inga chidamlilik darajasiga ega bo‘lishi lozim. Tortuvchi tutunsizlantirish tizimi havo kanallari 1,5 mm qalinlikdagi metall materialdan, “P” sinfiga mansub, EI 45 dan kam bo‘lmagan yong‘inga chidamlilik darajasiga ega qilib bajariladi. Xizmat ko‘rsatiladigan xonalarda o‘rnatiladigan tutun klapanlari avtomatik va masofadan boshqariladigan aktuatorlar bilan jihozlanadi hamda EI 45 dan kam bo‘lmagan yong‘inga chidamlilik darajasiga ega bo‘ladi. Koridorlardagi tutunni chiqarish klapanlari shift ostida, eshik romlarining yuqori darajasidan past bo‘lmagan balandlikda joylashtiriladi. Yonish mahsulotlarini chiqarish uchun mo‘ljallangan ventilyatorlar ochiq tomda joylashtiriladi. Yonish mahsulotlarining chiqarilishi binoning tom qoplamasidan kamida 2 metr balandlikda amalga oshiriladi. Chiqarish joyi atrofidagi 2 metr radiusda tom qoplamasi yonmaydigan materiallardan bajariladi. Shuningdek, tomda ventilyatorni atmosfera yog‘ingarchiligi va begona shaxslardan himoya qilish uchun yong‘inga chidamlilik darajasi me'yor bilan belgilanmagan yonmaydigan materialdan tayyorlangan to‘siq o‘rnatiladi.

4.6. Ventilyatsiya bo‘yicha qisqacha ma’lumot:

Binoda turli funksional va konstruktiv jihatdan ajratilgan xonalar guruhlari uchun majburiy (mexanik) va tabiiy havo harakati bilan ishlovchi kiruvchi va chiqaruvchi ventilyatsiya tizimlari ko‘zda tutilgan. Sanuzellarda majburiy tortuvchi ventilyatsiya tizimi nazarda tutilgan. Sanuzel tortuvchi ventilyatsiya uskunalari osma shift ostida joylashtirilgan. Kiruvchi va tortuvchi ventilyatsiya tizimlari har bir qavat uchun alohida holda bajarilgan. Qishki mavsumda tashqi havoni isitish uchun kiruvchi havo uskunasida issiq suvli kalorifer

o‘rnatilgan bo‘lib, unda issiqlik-sovitish ta’minoti tugunidan kelgan suv quyidagi parametrlar bilan aylantiriladi: T1 = 80°C, T2 = 60°C. Kiruvchi-chiqaruvchi ventilyatsiya uskunasi tegishli qavatning osma shifti ostida joylashtiriladi. Issiq yoz mavsumida havoni sovutish uchun havo sovutgich bo‘limida quyidagi parametrlar bilan suv aylanadi: T1 = 7°C, T2 = 12°C. Yozgi mavsumda tashqi havo havo sovutgichda +24°C gacha sovutilib, xizmat ko‘rsatiladigan xonalarga shiftga o‘rnatilgan sozlanadigan panjaralar orqali uzatiladi. Bino ichidan o‘tuvchi kiruvchi ventilyatsiya tizimi havo kanallari 9 mm qalinlikdagi folgali “Armaflex” issiqlik izolyatsiyasi bilan izolyatsiya qilinadi. Tom (qoplama) ustida o‘tuvchi qolgan kiruvchi havo kanallari esa 40 mm qalinlikdagi bazalt mineral paxtasi matolari bilan izolyatsiya qilinadi.

4.7. Suv ta'minoti bo‘yicha qisqacha ma’lumot:

Ichki suv quvuri tarmog‘i polipropilen quvurlaridan, PPRS turidagi, tashqi diametri dн20–110 bo‘lgan quvurlardan loyihalashtiriladi. Ventildan yuqoridagi stoyaklar hamda qavatlar bo‘yicha tarmoqlanishlar polipropilen quvurlardan amalga oshiriladi. Suv ta'minoti asosiy magistrali yerto‘la shipi ostidan yotqiziladi va namlik kondensatsiyasidan himoyalash maqsadida mineral paxta asosidagi, usti ruberoid va shisha toladan iborat yig‘ma konstruksiyalar bilan izolyatsiya qilinadi. Stoyaklar va qavatlar bo‘yicha tarmoqlanishlar yashirin tarzda o‘tkazilishi ko‘zda tutilgan. Tarmoqning ayrim qismlarini o‘chirish uchun ventillar va to‘sig‘ichli armaturalar o‘rnatiladi. Tashqi yong‘inga qarshi suv ta'minoti binoga yaqin hududdagi suv quvurlari tarmog‘iga o‘rnatilgan yong‘in gidrantlari orqali ta’minlanadi. Yashirin o‘tkazilgan quvurlarni yopishdan oldin ular tashqi ko‘zdan kechiriladi hamda gidravlik sinovdan o‘tkaziladi. Sovuq va issiq suv ta'minoti quvurlarining montaji tugagandan so‘ng, muhandislik testlash jarayonlari asosida ish sifatini nazorat qilish majburiy hisoblanadi. Montaj va gidravlik sinovlar tugagach, tizimlar ichki suv bilan yuviladi. (Texnik shartlarga muvofiq – 05.06.2024 y. №270/4-2245) Suv ta'minoti manbai – mavjud shahar bosimli suv quvuri liniyasidir. Ulash joyidagi kafolatlangan bosim H = 10 m (1 atm) ni tashkil qiladi.

4.8. Issiq suv ta'minoti bo‘yicha qisqacha ma’lumot:

Issiq suv 4 dona sig‘imi 2000 litrli akkumulyatsion baklar orqali ta'minlanadi. T3 tarmog‘i (ya’ni issiq suv ta'minoti liniyasi) GOST 18599-2001 talablariga muvofiq, diametri d20 mm dan d90 mm gacha bo‘lgan PPRC PN20 turidagi polipropilen quvurlaridan yig‘iladi.

4.9. Kanalizatsiya bo‘yicha qisqacha ma’lumot:

Iflos suvlar chiqarilishi ichki hududiy kanalizatsiya tarmog‘iga yo‘naltiriladi. Kanalizatsiya tarmog‘i PVX (polivinilxlorid) markasidagi polietilen quvurlardan loyihalashtirilgan. Stoyaklar va qavatlar bo‘yicha tarmoqlanishlar yashirin tarzda o‘tkazilishi ko‘zda tutilgan. Tarmoqda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tiqilishlarni bartaraf etish uchun reviziya va tozalash moslamalari o‘rnatiladi. Jihozlardan drenaj suvlar maxsus tutib turuvchi tizim orqali rakovina kanalizatsiya quvuriga ulab chiqariladi.

4.10. Yong‘inga qarshi suv ta'minoti tizimi B2 bo‘yicha qisqacha ma’lumot:

Mazkur loyiha doirasida savdo blokida yong‘inga qarshi suv ta'minoti tizimi (B2) ko‘zda tutilgan. Binodagi har bir yong‘in kraniga ichki yong‘inga qarshi suv sarfi 5 l/s ni tashkil etadi. Har bir binoning B2 tarmog‘i tashqi suv ta'minoti tarmog‘iga ulanadi. Binodagi B2 yong‘inga qarshi suv tarmog‘i GOST 10704-2001 talablariga muvofiq d133 mm dan d25 mm gacha bo‘lgan diametrli elektr payvandli metall quvurlardan tashkil topgan. Po‘lat quvurlar ikki marotaba moyli bo‘yoq bilan bo‘yalishi kerak. Ishchi loyiha amaldagi me’yor, qoidalar va standartlarga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, loyiha doirasida nazarda tutilgan choralar bajarilganda inshootdan foydalanish inson salomatligi uchun xavfsiz bo‘lishini ta'minlaydi. Avtomatik suvli yong‘in o‘chirish tizimining hisob-kitoblari SHNK 2.04.09-07 “Binolar va inshootlarning yong‘in avtomatikasi” talablariga muvofiq amalga oshirilgan. Loyihada barcha uzunliklar va bog‘lanishlar millimetrda, balandlik belgilari esa metrda ko‘rsatilgan. Quvurlarni devor va qavatlar orqali o‘tkazish gilzalarda bajariladi. Gilzaning uzunligi devorning qalinligidan oshmasligi lozim. Quvur yotqizilganidan so‘ng gilza bo‘shliqlari yong‘inga chidamli va oson zichlanadigan material (masalan, МГКП yong‘inga qarshi mastika) bilan

to‘ldiriladi.

4.11. Energiya tejakorlik.

Energiya samaradorlikni ta’minlash uchun quyidagi energiya tejovchi texnologik yechimlar qabul qilingan:

- devorlar, qoplamalar va pollarda issiqlik izolyatsiyasi qo‘llangan, shuningdek deraza va eshiklar konstruksiyalari issiqlik texnikasiga oid hisob-kitoblarga muvofiq ishlangan;

- yoritish svetodiodli chiroqlar orqali bajarilgan;

Bino tashqi devori quyoshdan himoyalovchi yoki bezakli qattiq qoplamali oyna qoplama bilan qoplangan.

Loyihaga ko‘ra binoning tom qismiga 80 dona quvvati 540 Vt bo‘lgan quyosh panellari o‘rnatish ko‘zda tutilgan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Ishchi loyiha quyidagi tashkilotlar tomonidan ko‘rib chiqilgan va kelishilgan:

- Toshkent shahar Qurilish Bosh boshqarmasi tomonidan ko‘rib chiqilgan va tasdiqlangan (2025-yil 26-martdagi 180302857-sonli xulosasi).

- Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi davlat ekologik ekspertizasi markazi Toshkent shahar filialining 2025-yil 6-martda berilgan 01-02/14-4570-sonli Davlat ekologiya ekspertizasi xulosasi;

- Sog‘liqni saqlash vazirligi sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining Toshkent shahar boshqarmasining 2022-yil 26-avgustdagi 0919/4525-sonli xulosasi.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **119 535 145 170** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

187 819 179 so'mga kamaytirilib, **119 347 325 991** so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **105 766 437 267** so'm

Asbob-uskunalar: **793 675 225** so'm

QQS: **12 787 213 499** so'm

6.1. Ishchi loyiha ekspertiza ko‘rigiga 2025-yil buyurtmachining loyihaviy yechimlariga izohlarsiz taqdim etilgan.

6.2. Ekspertiza jarayonida mahalliy (lokal) ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihasiga quyidagi asosiy tuzatishlar va qo‘shimchalar kiritildi:

- asosiy qurilish materiallari, quruvchi – ishchilarning ish haqlari, foydalaniladigan mashina va mexanizmlar narxlariga aniqlik qiritildi;

- loyiha-smeta hujjatlari ko‘rib chiqildi va kamchiliklar bartaraf etildi.

6.3. Ekspert tekshiruvi natijalariga ko‘ra, qurilish montaj-ishlarining dastlabki qiymati QQS bilan va buyurtmachining boshqa xarajatlarisiz 119 535 145,170 ming so‘m miqdorida, topshirilgan ishlar qiymati 187 819,179 ming so‘mga kamaytirilib, 119 347 325,991 ming so‘m qilib belgilandi, shu jumladan:

Asbob-uskunalar - 793 675,225 ming so‘m.

Qurilish-montaj ishlari - 105 766 437,267 ming so‘m.

QQS - 12 787 213,499 ming so‘m.

Qurilish qiymatining pasayishi qurilish materiallari, foydalaniladigan mashina va mexanizmlar narxlari va boshqalarga aniqlik kiritish hisobidan kelib chiqdi.

Import qilingan uskunalar va materiallar narxlari ekspertiza tomonidan ko‘rib chiqilmadi.

6.4. Buyurtmachi ishchi loyihani tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishish tavsiya etiladi.

Ushbu ob’ekt bo‘yicha taqdim qilingan barcha hujjatlarning haqiqiyligiga buyurtmachi va loyihachi mas’uldirlar.

6.5. Yakuniy qiymat qurilish tugagandan so‘ng, haqiqiy (po faktu) bajarilgan ishlar hajmlariga, nazorat-o‘lchov natijalariga asosan buyurtmachi va pudratchi tomonidan belgilanadi.

6.6. Buyurtmachiga tavsiya etiladi:

- qurilish materiallari (maxsulotlar, qurilmalar) va jixozlarning narxlari mintaqaviy bozordan, shuningdek to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlab chiqaruvchilardan, qurilish materiallari birjalari va yarmarkalar byulletenlaridan, qurilish materiallari va jixozlarini yetkazib beruvchi tashkilotlar, kataloglar va boshqalardan aniqlansin.

6.7. Buyurtmachiga loyihaviy hujjatlarni tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi, Toshkent viloyati ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasining ijobiy xulosasini olishi talab etiladi.

6.8. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o‘rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha-smeta hujjatlarini o‘zgartirish talabi qo‘yilgan. Agar yuqoridagi ushbu talablar bajarilmasa va loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachiga to‘liq tuzatishlarsiz berilsa, ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

6.9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-sonli qarorining 7-ilovasiga muvofiq va ShNK 1.03.06-13 da “Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma’lumotlarni loyihalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma’lumotlarning ishonchliligi bo‘yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo‘yicha) yuklatiladi”.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini inobatga olgan holda “Toshkent shahar Yakkasaroy tumani, Bobur ko‘chasi 24-uyda joylashgan “Ma’muriy hudud, Omborxona va mehmonxona” binosini “Yerto‘la qismida avtoturargoh, pastki qavati savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish majmuasi bo‘lgan ofis va mehmonxona” binosiga ixtisoslashtirib, rekonstruksiya qilish” (2-bosqich), smeta hujjatlari, ishchi loyihasi kelgusida ko‘rib chiqish va kelishish uchun tavsiya etiladi.

Bosh ekspert: Xudayberganov Xayrullo Ollaberganovich.

Ishtirokchi ekspertlar: Musayev Rustam Talatovich, Shakurov Rafael Faxrazeyevich, Olxovskaya Viktoriya Kamilovna, Kosherbaev Muratbek Abatovich, Jabborova Dilnoza Ollayorovna, Komilov Shoyadbek Qudrat O‘g‘li, Mirbobayev Zakir Xusnitdinovich